

UO‘K:159.9.072.533

**OILA MUSTAXKAMLIGIDA ETNOPSIXOLOGIK  
MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ  
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЕЙНОЙ  
СТАБИЛЬНОСТИ**

**PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ETHNOPSYCHOLOGICAL  
RELATIONS IN FAMILY STABILITY**

Jo‘rayev Atxam Qoraqulovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Psixologiya fani o‘qituvchisi

Джураев Атхам Каракулович

Предподователь психологический наук Термизский экономический и  
сервисный университет

Jurayev Atkxam Korakulovich

Teacher of Psychological Sciences Termiz Economic and Service University

E-mail: [ustozjurayev@gmail.com](mailto:ustozjurayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada oilaviy mustaxkamlikni taminlashda, oilaviy demografik munosabatlar, o‘zbek oilasining hayoti, undagi o‘zaro munosabatlar, uning urf-odatlar, an‘analari va qadriyatlar, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlar hamda oilaviy etnik munosabatlarni mustahkamlashda milliy ta‘lim tarbiyaning va etnopsixologik xususiyatlari haqida.

**Kalit so‘zlar:** Oila, oilaviy ta‘lim tarbiya, etnik qarashlar, etnopsixologik xususiyatlar.

**Аннотация:** В данной статье семейно-демографические отношения, быт узбекской семьи, взаимоотношения, ее обычаи, традиции и ценности, образ жизни, культура, воспитательная среда и условия труда, а также семейно-этническая об этнопсихологических особенностях национального воспитания и воспитание в укреплении отношений.

**Ключевые слова:** Семья, семейное воспитание, этнические взгляды, этнопсихологические характеристики.

**Annotation:** In this article, family and demographic relations, the life of the Uzbek family, relationships, its customs, traditions and values, lifestyle, culture,

*educational environment and working conditions, as well as family and ethnic about the ethnopsychological features of national education and education in strengthening relations.*

**Keywords:** *Family, family education, ethnic views, ethnopsychological characteristics.*

**Kirish** Bugungi kunda barcha davlatlarning ravnaqi va rivojining asosi, shubhasiz unda istiqomat qilayotgan turli etnomadaniy, milliy guruhlarga tegishli elat va millat vakillarining tinch-totuv va farovon hayoti, barqaror o'zaro munosabatlari va bag'rikengligiga borib taqaladi. Mamlakatda mavjud o'zga millatlar madaniyatiga ijobiy munosabatda bo'lish, ularning milliy qadriyatlari va urf-odatlariga hurmat bilan qarash, madaniy meroslarini oyoq osti qilmaslik va ularni kelajak avlod uchun asrab-avaylash har bir fuqaroning burchidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jumladan, X. Toshtemirov L.S. Yaxyoyev G.M. Hamidova T.T. To'ychiyeva M. Xolmatovalar tomonidan oilaviy turmushning falsafiy va etnopsixologik jihatlari, oila-nikoh munosabatlarining takomillashish an'analari, qadriyatlar, madaniy va marifiy urf odatlar, va hozirgi zamon o'zbek oilasining turmush tarzi o'rganilgan. Sh.A. Isroilov, F.M. Otaxo'jayev va boshqalar o'z tadqiqotlarida o'zbek ayollarining huquqiy masalalari, oila-nikoh munosabatlarining huquqiy jihatlari o'rganganlar. M.R.Bo'riyeva o'z tadqiqotlarida o'zbek oilasining demografik<sup>1</sup> jihatlari tadqiq etgan. Mazkur jarayonning psixologik xususiyatini B.Z. Umarov esa o'z ishlarida o'zbek oilasining sotsiologik jihatlari tadqiq etgan. Ayniqsa, Respublikamiz pedagog olimlarining mazkur sohada amalga oshirgan tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. A.Q. Munavvarov M.I. Sangilov O. Musurmonova H. Uzoqov O. To'rayeva va boshqalar o'z tadqiqotlarida o'zbek oilasining o'ziga xosligi, tarbiyaviy imkoniyatlari va shart-sharoitlari, o'zaro munosabatlar shakllanishining ma'naviy asoslarini keng o'rganganlar [2]. Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va

---

<sup>1</sup> **Demografik** (hudud, mamlakat, dunyo aholisi va millatning takror barpo bo'lishi jarayoni va omillarini o'rganish, muammolarni belgilab, yechimlarni aniqlash va istiqbolini ko'rsatib berishdan iborat) jihatlari tadqiq etgan.

uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obektiga aylanib bormoqda.

Bu sohada psixolog olimlardan G'.B. Shoumarov, E. G'oziyev, V.M. Karimova, M.G. Davletshin hamda boshqa izlanuvchilar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir [3, 4, 5, 2]. Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G'.B. Shoumarov o'z tadqiqotlari natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushishi muhim rol o'ynaydi deb takidlaydi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Ijtimoiy-tarixiy va ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o'zbek oilasining hayoti, undagi o'zaro munosabatlar, uning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti va mehnat shart-sharoitlarini jiddiy ilmiy muammolar sifatida. XX asrning 60-70 yillaridan e'tiboran o'rganila boshlandi. Ana shu yillardagi dastlabki tadqiqotlar ko'proq falsafiy, tarixiy, etnografik yo'nalishdagi va oilaning tarbiyaviy va mehnat shart-sharoitlarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, keyingi tadqiqotlar o'z xarakteriga ko'ra, oilaning madaniy, huquqiy, tibbiy, uning turmush tarzi, undagi tarbiya muhitining ahamiyati, o'zaro munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini o'rganishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqotlar sarasiga quyidagilarni keltirib o'tish o'rinlidir.

Bu borasida buyuk bobokalonlarimizning ham milliy etnopsixologik qarashlarini takidlab o'tishimiz mumkin, sharq mutafakkiri Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir [1]. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi.

➤ Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb - hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi.

➤ Ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi.

Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi. Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa,

tarbiyada qadimiy ma'naviy axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

U o'zaro munosabatlarni shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo'linishni e'tirof etadi. Ular quidagilar hisoblanadi:

- **Biologik**
- **Psixologik**
- **Sotsial**

Ba'zi hollarda shaxsning individual xususiyatlari bo'lmish mijoz turi jihatidan kelin-kuyovlar mos kelmasa-da, lekin ular orasidagi hissiyot kuchi, psixologik pedagogik bilim saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy va ma'naviy saviya darajasi, o'zaro munosabat maromlari ularning o'zaro ijobiy munosabatini, oilaning mustahkamligini ta'minlay oladi deb takidlaydi [3].

Yosh oilalarda milliy madaniyat, etnopsixologik xususiyatlar ya'ni, alturizm<sup>2</sup> (mehr-muhabbat, g'amxo'rlik) xudbinlikdan ustun bo'lsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug'dirmaydi. Shuningdek, psixologik bir biri bilan o'zaro ijobiy munosabat o'rnatishda, markaziy o'rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan fe'l-atvor va xarakter jihatlari egallashi alohida ta'kidlanadi.

Professor E. G'oziyevning oilaviy hayot muammolari sohasida olib borilayotgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Olimning ta'kidlashicha, oilaviy munosabatlar turli negiz; iqtisodiy, mafkuraviy, hissiy irodaviy, axloqiy-aqliy, hamda etnopsixologik qarindosh-urug'chilik, yaqinlik va do'stlik- birodarlik asosida quriladi. Ana shu negizlar baquvvat oilada er-xotin totuvligi, oila barqarorligi, oilaning baxti va farovonligi ta'minlanadi. Olimning fikricha, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yoki yangi oilalar qurishda ana shu muhim asoslarga e'tibor berish va ba'zi bir narsalardan ogoh bo'lish zarur. "Oila but bo'lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo gender tenglikni qaror toptirish

---

<sup>2</sup> Altuizm (lot. alter-boshqa, boshqalar) – boshqalarning farovonligi uchun beg'araz g'amxo'rlik bilan bog'lik faoliyatini anglatuvchitushuncha, fidoyilik tushunchasi bilan bog'liq ya'ni o'z manfaatini boshqa birovning manfaati uchun qurbon qilish bilan bog'liq.

kerak. Ikki yosh, ya'ni bo'lg'usi kuyov-qayliqlar bir-birlarini chuqurroq o'rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko'z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni yengishga, o'zgacha shart-sharoitga ko'nikishga bolalikdan o'rgatib borish lozim deb takidlaydi. Eng muhimi ular o'rtasida chin muhabbat bo'lishi darkor, Oilada mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish ayni muddaodir”.

Professor E. G'oziyev o'z tadqiqotlarida oilada yuzaga keladigan ziddiyatlar va oila buzilishlari haqida ham alohida to'xtalib, uning muayyan sabablari: er-xotinning xarakter jihatidan mos tushmaganligi, farzand ko'rmaslik, kelinning ma'naviy va jismoniy jihatdan haqoratlanganligi, moddiy ta'minotdagi kamchiliklar, tarbiyaviy qashshoqlik, oilada ortiqcha an'ana va marosimlarning mavjudligi, ichkilikka ruju qo'yish, rashk, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatining yo'qligi, qarindosh-urug'chilikdagi ko'ngil buzar ishlar mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, E.G'oziyevning bu sohadagi ishlari bilan tanishar ekanmiz, ularda o'zbek oilasidagi shaxslararo munosabatning o'ziga xosligi, oila barqarorligining ijtimoiy-psixologik mezonlari haqida ham qimmatli ma'lumotlar borligini ko'ramiz [5].

V.M. Karimova o'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o'zbeklarning oilaviy psixologiyasining o'ziga xos tomonlari haqida salmoqli tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif tadqiqotlari davomida o'zbek xalq og'zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga doir materiallarni izchil o'rganib, psixologik tahlillari asosida bir qator ilmiy g'oyalarni ilgari surgan. Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar murakkab va ko'p komponentli etnopsixologik tizimlar bo'lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o'zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar,

ta'lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o'ynaydi. Oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a'zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo'lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta'minlaydi.

V.M. Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o'zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya'ni oilaning katta yoki kichikligi, to'liq yoki noto'liqligi, undagi rollar, jinsiy o'zaro munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterini belgilashi va shaxsiy ijtimoiy ustanovkalar yo'nalishida aks etishi aniqlangan. Oiladagi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma'naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an'analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo'lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o'rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko'rsatib o'tgan [6]. Etnopsixologik milliy qadriyatlarning oila va farzand tarbiyasidagi ahamiyati haqida professor M.G. Davletshin tadqiqotlarida o'zbek oilasining etnopsixologik muammolari keng qamrovli o'rganilgan, shuningdek, ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni keng qamrovli ijobiy tashkil etishda etnopsixologik omillarni e'tiborga olish masalalari, etnopsixologik xususiyatlarning mohiyati, O'zbek psixologlari tomonidan fanda o'rganilganlik darajalari nazariy yo'nalishda tahlil qilinadi. Olib borilgan o'z tadqiqot ishlarimizda o'zbek oilalarida kuzatiladigan ajralishlarning etnopsixologik xususiyatlari, ajralishga olib keluvchi muhim omillar, uning motivlari va sabablarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Hozirgi davrda oila buzilishining umumiy sabablariga to'xtalar ekanmiz, o'zbek milliy-madaniy muhitida ana shu sabablarning qaysi birlari kuchliroq ta'sirga ega ekanligini o'zbek qishloq va shahar oilalari misolida hamda erkak va ayollarda qanday kechish holatini aniqlashga erishgan [7].

Ba'zi bir yoshlar oila qurib ota-onalik funksiyasini yetarli darajada bajara olmasliklari, bu holat esa yosh oilalarda bir qator qiyinchiliklar va muammolarga sabab bo'layotganligi ko'rsatib o'tilgan. Shunga binoan, tadqiqotda yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash ishlarini kuchaytirish, ularning shu sohaga oid vazifa va burchlarini bajarishi murakkab hamda ko'p qirrali jarayon ekanligi ta'kidlanib, oila qurgan yoshlar turmush tarzini kuzatib borish asosida undagi ixtiloflarning oldini olish va bartaraf etish uchun psixoproflaktik chora-tadbirlarni keng qo'llash zarurligi ta'kidlangan. Oila barqarorligini ta'minlaydigan omillarning qarama-qarshisi bo'lgan omillar ta'sirida kelib chiqadigan o'zbek xotin-qizlari orasida o'z joniga qasd qilish kabi hodisalarning oila-nikoh munosabatlariga salbiy ta'sirini ilmiy-psixologik jihatdan o'rgangan. Oilaviy etnik munosabatlar borasida rahbar ayollar haqida quyidagicha tarif bergan. Olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib shuni bildikki rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratigan bo'lib, unda rahbar ayollarning faoliyati ularning ijtimoiy-psixologik tuzilmasini ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan xulqni muvofiqlashtirish jarayonida tarkib topishi, takomillashishi va rivojlanib borishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, rahbarga xos shakllangan sifat va fazilatlar (ijtimoiy, psixologik va madaniy) oilada shaxslararo munosabatlarning barqarorlashuviga, undagi tarbiyaviy-psixologik, muhitning yanada yaxshilanishiga ijobiy ta'sir etishi ko'rsatib o'tilgan. Olib borilgan tadqiqotlarimizda Termiz oilalarining etnopsixologik xususiyatlari o'rganilgan. Termiz oilalari milliy madaniyatida etnik xususiyatlarga rioya qilingan holda vorislik saqlanib kelmoqda. Termiz oilalarining etnopsixologik xususiyatlari o'zbek xalqi istiqomat qilayotgan boshqa hududlardan o'zining tarixiy kechishi, makoni, madaniyati, ma'naviyati va turmush tarzi bilan muayyan darajada farqlanishga ega. Mazkur xususiyatlar, oilaviy turmush jarayonida o'zining psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy qirralarini namoyon qiladilar. Ulardagi psixologik muhitning muayyan shaklda saqlanib turishiga ta'sir ko'rsatadigan kelinlarning o'rni, nufuzi, hududda bir muncha tafovutga ega. Tadqiqotlar natijalariga tayanib, hozirgi o'zbek xalqining oilaviy munosabatlarida

etnopsixologik xususiyatlarga amal qilinishiga qarab quyidagicha oila toifalarini farqlashni taklif etadi:

- Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda qonun darajasida qabul qilingan oilalar.
- Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda hayotiy me'yor darajasida qabul qilingan oilalar:
- Urf-odatlar oilaviy munosabatlarda o'z aksini topmagan oilalar

ilmiy izlanishlarim davomida o'zbek oilalarda ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Muayyan darajada ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida oila-nikoh munosabatlari, uning barqarorligini ta'minlashning ba'zi omillari to'g'risidagi ilg'or qarashlarni va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan davlat ahamiyatidagi tadbirlarni tahlil qilarkan, oila-nikoh munosabatlarining jiddiy jihatlaridan biri sifatida hali ham oilalarning buzilishi - ajralishlar borligini alohida ta'kidlab o'tadi. O'z ilmiy tadqiqotimizga ko'ra, ajralish va uning asoratlari o'zbek oilalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ko'p bolalilik, uning murakkab tuzilmaliligi, qarindosh-urug'chilik aloqalarining kuchliligi, oila-nikoh munosabatlarining etnik xususiyati ko'proq saqlanib kelganligi, o'zbek oilasida ajralish boshqa xalqlarnikiga nisbatan qoralanishi, er-xotinlarning turmush darajasi, bilim saviyasi, muloqot madaniyati va shu kabilar bilan asoslanadi [11].

**Xulosa** qilib aytganda o'zbek oilalaridagi ajralish erkaklarga nisbatan ayollarda, shahar oilalariga nisbatan qishloq oilalarida muammoli va salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, er-xotin va ularning yaqinlari orasida nizolar hamda ziddiyatli holatlarning keskinlashuvi saqlanib qolishi, ajralish tufayli yuzaga kelgan, noto'liq oilalar bolalari shaxsiga, ularning ruhiyatiga, etno madaniy qadriyatlariga, o'zaro munosabatlarda, ta'lim-tarbiya jarayonida va millatlararo munosabatlarda jiddiy salbiy ta'siri ilmiy asoslangan. Tadqiqotlarimiz jarayonida shunga amin bo'ldikki pedagogik va psixologik ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tavsiya etgan ta'lim – tarbiya usullari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir. Har bir millat o'ziga xosligi, milliy madaniyati, milliy adabiyoti, milliy tili va shu millatning ruhiy tarzining majmuasida, ya'ni milliy ruhiyatida o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining o'z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy tuyg'usi, temperamenti, xulq – atvori, axloqi, didi, ta'bi alohida ajralib turadi. O'zbek millatining bilish jarayonlari, qobiliyatining aniq yo'nalishga qaratilganligi ehtiyoji va qiziqishi, milliy ongi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

O'zbek xalqining tarixiy an'analari, urf-odatlar, udumi, marosimlari, axloq me'yori, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabati, muomala maromi va xususiyati boshqa qardosh xalqlarnikidan ma'lum darajada tafovutlanadi. Masalan, o'zbek xalqi xarakterida andishalilik, xushmuomalalik, shirinsuhanlik, mehmon kutishdagi qo'li ochiqlik va sahiylik odatlari mavjud. O'zbek oilasida bola tarbiyasi mohiyati, mazmuni, tarbiyaning kundalik va istiqbol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib har tamonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan xalqimizning milliy ruhiyatidagi bunday urf – odatlar, etnopsixologik an'analalar kelajak avlodga meros sifatida qoldirilishi muqaddas burchdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent 2016. – 320 b.
2. Davletshin M.G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o'zbyek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. T. 1993. – 304 b.
3. Shoumarov G'.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. - Toshkent 1994. – 278 b.
4. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiyasi. - T., 2002. – 307 b.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o'zaro munosabatlari roli. / O'zbek oilasining etnopsixologik muammo-lari. Resp. Ilm. amal. anj. ma'ruz. qisqacha bayoni. - Toshkent, 1993. – B. 106-108.

6. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o‘zaro munosabatlariniig roli. / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. ilm. amal. anj. ma’ruz. qisqacha bayoni. - T., 1993. – B. 102-105.
7. To‘rayeva O‘. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – Toshkent, 1990. – B. 76-93.
8. Davlatshin M.G. Oiladagi nizolar psixologiyasi va uning bartaraf etish yo‘llari. o‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. ilm. amal. anj. ma’ruz. qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993.
9. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2007.
10. Turayeva D.R., Sharapova S.D., Mamanova S. Etnopsixologiya. – Guliston, 2022. – B. 201-216.